V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ABRAYEV BAXROM XOLTO‘RAYEVICH

CHIZIQLI DIOFANT TENGLAMALAR SISTEMASINING TUB SONLARDAGI YECHIMLARI HAQIDA

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TERMIZ – 2024

UDK: 511.348

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ABRAYEV BAXROM XOLTO‘RAYEVICH

CHIZIQLI DIOFANT TENGLAMALAR SISTEMASINING TUB SONLARDAGI YECHIMLARI HAQIDA

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TERMIZ – 2024

Fizika-matematika Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/FM753 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://kengash.mathinst.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Allakov Ismail** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Chubarikov Vladimir Nikolayevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Xudoyberdiyev Abror Hakimovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil " 16 " aprel kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174,Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (179-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil " 03 " aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil " 03 " apreldagi 2 - raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m. f. d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.R.Hayotov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash xuzuridagi ilmiy seminar rais o'rinbosari, f.-m. f. d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda nazariy mexanika va kriptografiya masalalarini tadqiq qilishga keltiriladi. Tabiiy jarayonlarning matematik modellarini tadqiq etish sonlar nazariyasi masalalari nazariy asosini tashkil etib, kriptografiyaning shifrlash va deshifrlash qonuniyatlarini sonlar nazariyasi masalalari yordamida aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari berilgan yetarli katta toq sonni tub ko‘paytuvchilarga ajratishning ratsional usuli mavjud emasligiga asoslangan kriptografiyaning ochiq kalitli shifrlash algoritmi ham sonli funksiyalar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, shifrlash va deshifrlash qonuniyatlari yetarli katta natural sonlarni eksponensial va subeksponensial murakkabliklarga ajratish, sonlarni tub ko‘paytuvchilarga ajratish yordamida amalga oshiriladi.

Bunday masalalarni yechishda zarur bo‘ladigan deshifrlash, sonli funksiyalar va Dirixle xarakterlarining qiymatlari o‘zgaruvchilarining sonli qiymatlariga bog‘liq. Additiv masalalar sonlar nazariyasida muhim ahamiyatga ega. Goldbaxning binar muammosini hal qilish va uning bu yo‘nalishdagi turli xil shakllari bo‘yicha Xardi – Littlvudning doiraviy usuli yordamida muhim natijalarga erishildi. Shundan keyin doiraviy usulni trigonometrik yig‘indilar usuli bilan birga qo‘llash, sonlar nazariyasidagi ko‘plab turli masalalarning hal etilishiga olib kelindi. Bu borada tub sonlar qatnashgan additiv masalalarning turli xil ko‘rinishlari, xususan chiziqli Diofant tenglamalar sistemasining tub sonlarda yechimga ega bo‘lish shartlari to‘g‘risidagi masala hamda Goldbaxning ternar muammosini deyarli teng qo‘shiluvchilar bo‘yicha umumlashtirish masalasi sonlarning additiv nazariyasida maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarni ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan sonlar nazariyasining dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Xususan, oxirgi yillarda sonlarni tub son va butun son ko‘paytmalari yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlash haqidagi masalani hal etish borasida salmoqli natijalarga erishildi. “Algebra va geometriya” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyatlari etib belgilandi. Ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida sonlar nazariyasining additiv masalalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega[1].

Ushbu dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot obyekti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ- 2909-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-son qarori.

son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika va fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sonlar nazariyasida additiv masalalar muhim ahamiyatga ega. Chiziqli Diofant tenglamalar sistemasining tub sonlardagi yechimlari haqidagi masala ham additiv masalalar qatoriga kiradi. Hozirgi vaqtda sonlar nazariyasinig chiziqli tenglamalar sistemasining tub sonlarda yechimga ega bo‘lishi haqidagi muammolari hamda Goldbaxning ternar muammosini deyarli teng qo‘shiluvchilar bo‘yicha umumlashtirish haqidagi masalalar borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Jumladan, yuqorida qayd etilgan additiv masalalar sohasidagi natijalarni hisobga olib, tub sonlar, butun va natural sonlar qatnashgan additiv masalalarni, xususan, chiziqli tenglamalar sistemasining tub sonlarda yechimga ega bo‘lishi haqidagi masalalarni o‘rganib horijiy davlatlar olimlaridan G. H. Xardi, J. E. Littlvud, K.Praxar, Xua Lo-Ken, H. L. Montgomeri, R. C. Von, A. Beyker, Chjen Tsuy, Xuntsze Li, M. C. Liu, K. M. Tsang, K. K. Choy, A. Kumchev, J. R.Makintosh va boshqalar, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga kiruvchi davlarlarda yashagan olimlardan I.M.Vinogradov, Y.Linnik, A.A Karatsuba, B.M. Bredixin, B.V.Levin, G.I.Arxipov, N. V. Chubarikov, Z. X. Raxmonov va boshqalar, tomonidan yangi natijalarga erishilgan.

Shuni ham ta’kidlash joizki, Respublikamiz olimlaridan N.P.Romanov A. F. Lavrik, T. Zuparov, M. I. To‘laganova, M. I. Isroilov, S. T. To‘laganov, X. N. Narzullayev, S. Sh. Shushbayev, Sh. I. Ismatullayev, A. S. Faynleyb, I .Allakov, A. Sh. Safarov va boshqalarning ilmiy ishlarida Dirixle L - funksiyasi nollari taqsimotining zichligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga tayanmaydigan hamda L-funksiya nollarining zichligi to‘g‘risdagi gipoteza o‘rinli bo‘lgan hollar uchun masalaning yechimini olishda yangi natijalarga erishilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi trigonometrik yig‘indilar yordamida berilgan bir juft natural sonni bir vaqtning o‘zida to‘rtta tub sonlarning yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlashlar soni uchun quyidan baho olish hamda deyarli teng qo‘shiluvchilar

bo‘yicha Goldbaxning ternar muammosini umumlashtirish masalasida yechimlari soni uchun asimptotik formula olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

chiziqli tenglamalar sistemasining tub sonlarda yechimga ega bo‘lish shartlarini o‘rganish;

berilgan natural sonlar juftligini bir vaqtning o‘zida to‘rtta tub son yig‘indisi ko‘rinishida ifodalashlar;

berilgan natural sonlar juftligini bir vaqtning o‘zida to‘rtta tub son yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlashlar haqidagi masalada singulyar qator va singulyar integralni tekshirish;

berilgan natural sonlar juftligini bir vaqtning o‘zida to‘rtta tub sonlar yig‘indisi ko‘rinishida ifodalashlar soni uchun quyidan baho olish;

katta yoylar markazining kichik atrofida tub sonlar bilan bog‘lik chiziqli qisqa trigonometrik yig‘indilarni o‘rganish;

deyarli teng qo‘shiluvchilar uchun umumlashgan Goldbax muamosini o‘rganish ya’ni yetarlicha katta N natural sonni $b_1p_1+b_2p_2+b_3p_3=N$ ko‘rinishda ifodalashlar haqidagi masalani tahlil qilish, bu yerda p_1,p_2,p_3 tub sonlar, b_1,b_2,b_3- natural sonlar.

Tadqiqotning obyekti. Chiziqli trigonometrik yig‘indilar, chiziqli qisqa trigonometrik yig‘indilar, sonli funksiyalar, Dirixle xarakterlari va Dirixle $L-$funksiyasi, to‘rtta tub noma’lumli Diofant tenglamalar sistemasi, umumlashgan Goldbax tenglamasi.

Tadqiqotning predmeti. sonlarning additiv nazariyasi, arifmetik funksiyalar nazariyasi, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, Dirixle xarakterlari nazariyasi, Dirixle $L-$funksiyalari nazariyasi .

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada Xardi-Littlvud, Ramanudjanning doiraviy usuli, I.M.Vinogradovning tub sonlar bilan bog‘liq trigonometrik yig‘indilar usuli va Xazelgrov-Raxmonov metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir vaqtning o‘zida berilgan sonlar juftligini tub son va butun son ko‘paytmalarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalashlar masalasida kongruent yechimga ega bo‘lishlik va musbat yechimga ega bo‘lishlik shartlarini qanoatlantiruvchi natural sonlar soni uchun quyidan baho olingan;

berilgan natural sonlar juftligini bir vaqtning o‘zida tub son va butun son ko‘paytmalarining yig‘indisi ko‘rinishida ifodalanmaydiganlar maxsus to‘plami uchun yangi baho isbotlangan;

katta yoylar markazining kichik bo‘laklarida tub sonlar bilan maxsus chiziqli qisqa trigonometrik yig‘indilar uchun yangi baho olingan;

deyarli teng qo‘shiluvchilar uchun Goldbaxning umumlashgan ternar muammosining yechimlari soni uchun asimptotik formula olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chiziqli tenglamalar sistemasining tub sonlarda yechimga ega bo‘lish masalasida maxsus to‘plamga kirmagan natural sonlar sonini baholash va masalaning maxsus qatori va maxsus integralini baholash usuli bayon qilingan;

chiziqli tenglamalar sistemasining tub sonlarda yechimga ega bo‘lish shartlarini tekshirish va yechimga ega bo‘lish shartlarini qanoatlantiruvchi natural sonlar to‘plami uchun baho olish usuli bayon qilingan;

umumlashgan Goldbax ternar muammosining yechimlari soni uchun asimptotik formula olish usulining bayon qilinganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kompleks analiz, algebra, sonlar nazariyasi metodlaridan foydalanilganligi va matematikada qabul qilingan deduktiv xulosalarga asoslanganligi va teoremalarning qat’iy va to‘liq isbotlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sonlar nazariyasining additiv masalalari nazariyasining keyingi rivojida foydalanish mumkinligi, hamda sonlarning analitik nazriyasini yanada rivojlantirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sonlar nazariyasining additiv masalalarida sonli natijalar olish imkoniyatini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chiziqli Diofant tenglamalar sistemasining tub sonlardagi yechimlari soni uchun olingan natijalar asosida:

chiziqli tenglamalar sistemasining tub sonlarda echimga ega bo’lish shartlarini va bu shartlarni qanoatlantiruvchi natural sonlar to’plami uchun baho olish usullaridan F3-202009211 raqamli “Aralash turdagi tenglamalar uchun xarakteristika va buzilish chizig‘ida Frankel va Bitsadze-Samarskiy shartlari berilgan masalalar korrektligini noklassik singulyar integral tenglamalarga olib kelib o’rganish” mavzusidagi fundamental loyihada xarakteristik chiziqning xususiyatlarini aniqlashda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2023 yil 3-dekabrdagi №03/12-5271-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi aralash turdagi tenglamalar uchun xarakteristika va buzilish chizig‘iga qo‘yilgan shartlar bilan bog‘liq masalalarining echimini soddalashtirish imkonini bergan;

Goldbaxning ternar muammosini deyarli teng qo‘shiluvchilar bo‘yicha umumlashtirish masalasida olingan asimptotik formulalardan GR0121TJ1178 raqamli “Qisqa aralash trigonometrik yig‘indilarni baholash va ularni maxsus Dirixle qatorining nollar nazariyasiga tatbiq qilish” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida sonlar nazariyasining turli additiv masalalarini deyarli teng qo‘shiluvchilar bo‘yicha umumlashtirish hamda trigonometrik yig‘indilar metodi yordamida kichik yoylar bo‘yicha baholash masalalarida foydalanilgan (Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi A. Jo‘raev nomidagi Matematika institutining 2024 yil 29-yanvardagi №31004/24-07-sonli ma’lumotnomasi, Tojikiston). Ilmiy natijaning qo‘llanishi sonlar nazariyasining deyarli teng qo‘shiluvchilar bo‘yicha natural sonni beshta kvadratlar yig‘indisi ko‘rinishida ifodalashlar soni uchun asumptotik formulalar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi

xorijiy nufuzli jurnallarda va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Bulardan tashqari 1 ta ilmiy maqola Tojikiston Milliy fanlar akademiyasining ma'ruzalarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 102 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Bir juft natural sonni bir vaqtning o'zida to'rtta tub sonning yig'indisi ko'rinishida ifodalash**" deb nomlangan va u to'rtta paragrafdan tashkil topgan.

Birinchi paragrafda masalaning asosiy natijalari keltirilgan. Ushbu tenglamalar sistemasini qaraymiz

$$b_i = a_{i1}p_1 + a_{i2}p_2 + \cdots + a_{im}p_m, \qquad i = 1,2,\ldots,s \tag{1}$$

bu yerda $b_1, b_2,\ldots,b_m$ – natural sonlar, $a_{i1}, a_{i2},\ldots,a_{im}$ – butun koeffitsiyentlar, $p_1, p_2,\ldots, p_m$ – tub sonlar. $U_{s,m}(X)$ – orqali (1) sistema tub sonlarda yechimga ega bo'lmagan $(b_1,b_2,\ldots,b_s), 1 \le b_1,b_2,\ldots,b_s \le X,$ elementlar majmuasini belgilaymiz ya'ni

$$U_{s,m}(X) = \left\{ (b_1,b_2,\ldots,b_s),\ 1 \le b_1,b_2,\ldots,b_s \le X,\ b_i \ne a_{i1}p_1 + a_{i2}p_2 + \cdots + a_{im}p_m \right\}$$

va $U_{s,m}(X)$ to'plamning elementlari sonini $E_{s,m}(X) = card U_{s,m}(X)$ – orqali belgilaylik.

(1) sistemani Wu Fang, $m \ge 2s+1$ bo'lganda qo'shimcha shartlarda tekshirdi va (1) sistemaning yechimlari soni uchun asimptotik formula oldi.

M.S.Liu va K.M.Tsanglar (1) sistemaning xususiy holi $s = 2,\ m = 3$ uchun

$$E_{2,3}(X) \le X^{2-\varepsilon}, \tag{2}$$

ko'rsatkichli bahoni isbotladi bu yerda X yetarlicha katta haqiqiy son, ε absolyut effektiv hisoblanuvchi musbat kichik o'zgarmas.

Ma'lumki, (1) sistemaning yechimga ega bo'lishi ushbu shartlarga bog'liq:

a) istalgan p tub soni uchun $a_{i1}p_1 + \ldots + a_{im}p_m \equiv b_i,\ (i = 1,\ldots,s)$ taqqoslamalar sistemasi o'rinli bo'ladigan $1 \le l_1,\ldots,l_m \le p-1$ shartlarini qanoatlantiruvchi $l_1,\ldots,l_m$ butun sonlari mavjud;

b) shunday haqiqiy musbat butun $y_1,\ldots,y_m$ sonlari mavjudki ular uchun $a_{i1}y_1 + a_{i2}y_2 + \ldots + a_{im}y_m = b_i,\ (i = 1,\ldots,s)$ tengliklar o'rinli bo'ladi.

$W_{s,m}(X)$– orqali a) va b) shartlarini qanoatlantiruvchi $\vec{b}=(b_1,b_2,\ldots,b_m)$, $1\le b_1,b_2,\ldots,b_m\le X$ vektorlarning to‘plamini belgilaymiz.

M.C. Liu va K. M.Tsanglarni ishida quyidagi baholar o‘rinli ekanligi isbotlangan:

1) Agar qandaydir haqiqiy musbat y_1,y_2,y_3 lar uchun $\sum_{j=1}^{3}a_{ij}y_j>0,\ i=1,2,$ o‘rinli bo‘lsa, u holda yetarlicha katta X uchun $card W_{2,3}(X)\gg X^2(B^2\ln\ln B)^{-2}$, baho o‘rinli, bunda $B=max\left\{3|a_{ij}|\right\},\ (i=1,2,\ j=1,2,3)$;

2) Agar $X>B^A$ bo‘lsa, u holda $E_{2,3}(X)<X^{2-\varepsilon}$ baho o‘rinli, bunda A-yetarlicha katta, $\varepsilon>0$ yetarlicha kichik va effektiv hisoblanuvchi o‘zgarmas.

I. Allakov 1993 yilda (2) bahoni yaxshiladi, so‘ngra u bu natijani 2005 yilda (1) sistemada $s=n,\ m=n+1$ bo‘lgan hol uchun umumlashtirdi.

Yuqorida qarab chiqilganlardan ko‘rinadiki $s=2,\ m=4$ bo‘lganda (1) sistemani o‘rganish haqidagi masala ochiqligicha qolib kelmoqda, chunki bu holat yuqoridagi mualliflarning ishlarida yoritilmagan.

Biz bu yerda aynan shu holatni qaraymiz. $s=2,\ m=4$ deb olib (1) dan ushbu sistemani hosil qilamiz

$$b_i=a_{i1}p_1+a_{i2}p_2+a_{i3}p_3+a_{i4}p_4,\ (i=1,2). \tag{3}$$

Avvalo (3) sistema uchun yechimga ega bo‘lishlik shartlarining bajarilishini tekshiramiz. Ma’lumki (1) sistemaning yechimga ega bo‘lishligi a) va b) shartlarga bog’liq. Bu shartlar odatda musbat yechimga ega bo‘lishlik va kongruent yechimga ega bo‘lishlik shartlari deb ataladi.

Birinchi bobining asosiy natijasi quyidagi teorema hisoblanadi:

1-teorema. Aytaylik a) va b) shartlarni qanoatlantiruvchi $\vec{b}=(b_1,b_2),\ 1\le b_1,b_2\le X,$ vektorlar to‘plami $W_{2,4}(X)$ bo‘lsin. U holda yetarlicha katta X lar uchun

$$card W_{2,4}(X)>1,69954\ X^2B^{-20}(e^{\gamma_0+10}\ \ln\ln B+\ 2,507\cdot e^{10}(\ln\ln B)^{-1}\ )^{-1}$$

baho o‘rinli, bu yerda $\gamma_0=0,5772...-$Eyler doimiysi va $B=max\left\{3|a_{ij}|\right\}$, $\left(i=1,2;\ j=\overline{1,4}\right)$.

Bu teoremadan a) va b) shartlarni qanoatlantiruvchi $\vec{b}=(b_1,b_2),\ 1\le b_1,b_2\le X,$ vektorlarning yetarlicha ko‘p ekanligi kelib chiqadi.

Bu bobning ikkinchi paragrafi musbat yechimga ega bo‘lishlik va kongruent yechimga ega bo‘lishlik shartlarini qanoatlantiruvchi natural sonlarning sonini baholashga bag‘ishlangan ya’ni 1-Teoremaning isbotiga bag‘ishlangan.

Uchinchi paragrafi birlik intervallarni bo‘laklash va ular uchun baho olishga bag‘ishlangan. Faraz qilaylik $\tau=T^{\frac{1}{4}}N^{-1}$. Istalgan butun $1\le h_1,h_2,q\le Q$ va $(h_1,h_2,q)=1$, shartlarni qanoatlantiruvchi h_1,h_2,q-butun sonlar uchun

$$\bar{m}(h_1,h_2,q)=\left\{(x_1,x_2)\in R^2:\left|x_\lambda-h_\lambda q^{-1}\right|\le \tau q^{-1}\right\},(\lambda=1,2)$$

$$M_1=\cup\bar{m}(h_1,h_2,q),\ M_2=[\tau,1+\tau]^2\setminus M_1 \qquad (4)$$

deb olaylik, bu yerda $\bar{m}(h_1,h_2,q)$ juft-jufti bilan kesishmaydigan $[\tau,1+\tau]^2$ kvadrat ichida yotuvchi kvadratchalar.

Ixtiyoriy haqiqiy x_1,x_2 va $\vec{b}=(b_1,b_2)\in W_{2,4}(X)$ lar uchun $\bar{x}_b=b_1x_1+b_2x_2$ va $\bar{x}_j=a_{1j}x_1+a_{2j}x_2,\ (1\le j\le 4)$ deb olaylik.

Agar

$$I(\vec{b})=\sum\Lambda(n_1)\Lambda(n_2)\Lambda(n_3)\Lambda(n_4),$$

(bu yerda $\Lambda(n)=\begin{cases}\ln p, & \text{agar } n=p^m \text{ bo'lsa};\\ 0, & \text{agar } n\ne p^m.\end{cases}$ tenglik yordamda aniqlanuvchi Mongold funksiyasi) orqali (3) sistemaning yechimlarini belgilasak u holda $S(y)=\sum\limits_{L\le n\le N}\Lambda(n)e(ny)$ tenglik va (4) belgilashlarga ko‘ra $I(\vec{b})$ ni ushbu ko‘rinishda tasvirlashimiz mumkin:

$$I(\vec{b})=\int_\tau^{1+\tau}\int_\tau^{1+\tau}e(-\vec{x}_b)\prod_{j=1}^{4}S(\bar{x}_j)dx_1dx_2=\left(\iint_{M_1}+\iint_{M_2}\right)e(-\bar{x}_b)\prod_{j=1}^{4}S(\bar{x}_j)dx_1dx_2=I_1(\vec{b})+I_2(\vec{b}).$$

$I_1(\vec{b})$ odatdagi doiraviy metoddagidek $I(\vec{b})$ ning asosiy hadi $I_2(\vec{b})-$esa qoldiq hadni tashkil etadi. Shunday qilib chiziqli tenglamalar sistemasini tub sonlarda yechish masalasi tomonlari uzunligi birga teng kvadratlar hosil qilgan soha bo‘yicha olingan va bosh had hamda qoldiq had deb ataluvchi ikkita integralni tekshirishga olib kelinadi.

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafi katta yoy bo‘yicha $I_1(\vec{b})$ integralni soddalashtirishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyaning “**Masalaning maxsus to‘plamini baholash**” deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rtta paragrafdan tashkil topgan. Bu bobning asosiy natijasi ushbu teorema orqali bayon qilingan.

2-teorema. Agar X -yetarlicha katta $\delta\ (0<\delta<1)$ esa yetarlicha kichik haqiqiy son bo‘lsa, u holda

a) shunday yetarlicha katta A soni mavjudki $X>B^A$ bo‘lganda $E_{2,4}(X)<X^{2-\delta}$ baho o‘rinli;

b) aytaylik $K=9\sqrt{2}B^3\left|\vec{b}\right|$ va $R(\vec{b})-$esa (3) ko‘rinishda tasvirlash mumkin bo‘lgan $\vec{b}=(b_1,b_2),\ 1\le b_1,b_2\le X$ vektorlar soni bo‘lsin, u holda berilgan $\vec{b}=(b_1,b_2),\ 1\le b_1,b_2\le X$ larning $X^{2-\delta}$ tadan ko‘p bo‘lmagan barcha qiymatlari uchun $R(\vec{b})\ge K^{2-\delta}(\ln K)^{-4}$ baho o‘rinli.

Birinchi paragrafda muammoning singulyar qatori va singulyar integralining yaqinlashuvchiligini ta’minlovchi ushbu lemmalar isbotlangan. Istalgan butun

$q \geq 1$ va p tub sonlari uchun $A(q) = \frac{1}{\varphi^4(q)} \sum_{\bar{h}}{}' e(-\bar{h}_b) \prod_{j=1}^{4} C_q(\bar{h}_j)$, $s(p) = 1 + A(p)$ belgilaylik. $A(q), s(p)$ va $N(q)$ funksiyalar uchun ushbu lemmalar o‘rinli.

1-lemma. a) $A(q)$ va $N(q)$ multiplikativ funksiyalar;

b) agar $k \geq 2$ bo‘lsa, u holda $A(p^k) = 0$ tenglik o‘rinli;

s) istalgan natural $k \in N$ uchun, $N(p^k) = p^{2k-2} N(p)$ tenglik o‘rinli;

d) barcha p lar uchun $s(p) = p^2 \varphi^{-4}(p) N(p)$ o‘rinli va demak $s(p) > 0$;

e) natural q va p tub sonlari uchun $q^2 \varphi^{-4}(q) N(q) = \prod_{p|q} s(p)$ tenglik o‘rinli.

Endi barcha tub sonlar to‘plamini ikki P_B va P_D qismga ajratamiz bu yerda $P_B = \{ p : p | \Delta_{12} \Delta_{13} \Delta_{14} \Delta_{23} \Delta_{24} \Delta_{34} \Delta_{1b} \Delta_{2b} \Delta_{3b} \Delta_{4b} \}$, $P_D = \{ p : p \notin P_B \}$ hamda barcha Δ_{ij}-lar (3) sistema tenglamalari koeffitsiyentlari hamda ozod hadlar yordamida tuzilgan ikkinchi tartibli determinantlar.

2-lemma. Ushbu $\Delta_{1b} \Delta_{2b} \Delta_{3b} \Delta_{4b} = 0$ shartni qanoatlantiruvchi $\vec{b} = (b_1, b_2)$ lar uchun quyidagilar o‘rinli:

a) Barcha p lar uchun $-\frac{20}{p^2} \leq A(p) \leq \frac{6}{p}$ va agar $p \in P_D$ bo‘lsa, u holda $-\frac{4}{p} \leq A(p) < 0$ o‘rinli bo‘ladi;

b) Barcha p tub sonlar uchun $\prod_{p} \left(1 + |A(p)|\right) \leq \left(\ln \ln N\right)^6$ munosabat o‘rinli;

s) Ushbu $\prod_{p} s(p)$ ko‘paytma absolyut yaqinlashuvchi va $\prod_{p} s(p) > 0$;

d) Istalgan $y \geq 1$ haqiqiy son uchun $\sum_{q \geq y} |A(q)| << \frac{1}{y} N^{\frac{4}{\ln \ln N}} \ln^6(y+2)$ tengsizlik o‘rinli.

Faraz qilaylik $\chi_j \pmod{r_j}$, $(j = 1,2,3,4)$ – primitiv xarakterlar r esa r_1, r_2, r_3, r_4, sonlarning eng kichik umumiy karralisi bo‘lsin, keyinchalik $Z(q) = Z(q : \chi_1, \chi_2, \chi_3, \chi_4) = \sum_{\bar{h}} e_q(-\bar{h}_b) \prod_{j=1}^{4} C_{\chi_j \chi_0}(\bar{h}_j)$ ko‘rinishdagi ifodalarning bahosi kerak bo‘ladi, bu yerda $q -$ soni r ga karrali, $\chi_0 -$ esa q modul bo‘yicha bosh xarakter.

3-lemma. Ushbu $Z(q) = Z(q : \chi_1, \chi_2, \chi_3, \chi_4) = \sum_{\bar{h}} e_q(-\bar{h}_b) \prod_{j=1}^{4} C_{\chi_j \chi_0}(\bar{h}_j)$ ifoda uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

a) $Z(r)=r^2\sum_{r}\prod_{j=1}^{4}\chi_j(l_j)$ tenglik o‘rinli;

b) agar $r \setminus q$, va $q=q_1q_2, (r,q_2)=1$ hamda q_1 ning har bir tub bo‘luvchisi r ni bo‘lsa, u holda $Z(q)=Z(q_1)\varphi^4(q_2)A(q_2)$ va agar $q_1>r$ bo‘lsa $Z(q_1)=0$;

s) $\sum_{\substack{q\le Q,\\ r\setminus q}}\varphi^{-4}(q)Z(q)\le\prod_{p}s(p)$ tengsizlik o‘rinli.

Bu lemmalardan singulyar qatorning yaqinlashuvchiligi kelib chiqadi. Masalaning singulyar integralning yaqinlashuvchiligi quyidagi lemmadan kelib chiqadi.

4-lemma. Agar ρ_j $(j=1,2,3,4)$ $0\le \operatorname{Re}\rho_j\le 1$ lar ixtiyoriy kompleks sonlar bo‘lsa, u holda

$$\iint_{R^2}\left[\prod_{j=1}^{4}\int_{L}^{N}x_j^{\rho_j-1}e(x_j\overline{\eta}_j)dx\right]e(-\overline{\eta}_b)d\eta_1d\eta_2=N^2\left|\Delta_{34}\right|^{-1}\iint_{(D)}\prod_{j=1}^{4}\left(Nx_j\right)^{\rho_j-1}dx_1dx_2$$

tenglik o‘rinli. Bunda x_3,x_4 va integrallash sohasi *D* quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{cases}x_3=f_1(x_1,x_2)=\dfrac{1}{\Delta_{34}}\left(\Delta_{b4}-\Delta_{14}x_1-\Delta_{24}x_2\right)\\ x_4=f_2(x_1,x_2)=\dfrac{1}{\Delta_{34}}\left(\Delta_{b3}+\Delta_{13}x_1+\Delta_{23}x_2\right)\end{cases}$$

$$D=\left\{x_1,x_2:\ LN^{-1}\le x_1,x_2,\ f_1(x_1,x_2),\ f_2(x_1,x_2)\le 1\right\}$$

bundan tashqari, agar $\left(b_1,b_2\right)\in W_{2,4}(X)$ bo‘lsa, u holda $\overline{b}=\left(b_1,b_2\right)\in W_{2,4}(X)$ ning ko‘pi bilan $X^2Q^{-\frac{1}{101}}$ ta qiymatidan tashqari barcha qiymatlari uchun $\iint_{(D)}dx_1dx_2\gg Q^{-\frac{1}{100}}$ baho o‘rinli.

Maskur bobning ikkinchi paragrafida katta yoylar bo‘yicha olingan integral baholangan.

Uchinchi va to‘rtinchi paragraflar ikkinchi bobning asosiy natijasini isbotlashga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya ishining “**Deyarli teng qo‘shiluvchilar bo‘yicha Goldbaxning ternar muammosini umumlashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobi beshta paragrafdan tashkil topgan va Goldbaxning ternar muammosini deyarli teng qo‘shiluvchilar bo‘yicha umumlashtirish masalasi o‘rganilgan.

Ma’lumki, I. M. Vinogradov 1941 yilda karrali trigonometrik yig‘indilarni tekshirish va g‘alvirlash usuliga asoslangan tub sonlar bilan trigonometrik yig‘indini baholash usulini yaratdi. Xususan u birinchi bo‘lib chiziqli trigonometrik yig‘indining bahosini ya’ni $k=1$ bo‘lgan holda $S_k(\alpha,N)=\sum_{m\le N}\Lambda(m)e(\alpha m^k)$ ko‘rinishdagi yig‘indi uchun $\mathfrak{m}((\ln N)^b)$ kichik yoylarda trivial bo‘lmagan baho oldi va u toq N natural sonini uchta tub sonlar

yig‘indisi ko‘rinishda tasvirlashlar soni bo‘lgan Goldbax ternar muammosining yechimlari uchun asimptotik formula olishga mavaffaq bo‘ldi.

K.V.Xazelgrov $S_1(\alpha;x,y)$ yig‘indi uchun $\mathfrak{m}((\ln N)^b)$ kichik yoylarda trivial bo‘lmagan baho va $y \geq x^\theta$, $\theta = \frac{63}{64} + \varepsilon$ bo‘lganda $\mathfrak{M}((\ln N)^b)$ katta yoylarda qoldiq had uchun formula oldi. Ushbu natijalardan foydalanib, u deyarli teng qo‘shiluvchilar uchun Goldbax muammosini hal qilishga muvaffaq bo‘ldi, xususan

$$p_1 + p_2 + p_3 = N, \qquad \left| p_i - \frac{N}{3} \right| \leq H, \qquad H \geq N^\theta, \tag{5}$$

Diofant tenglamasi yechimlari soni uchun asimptotik formula oldi.

Pan Chen-dong va Pan Chen-biao I. M. Vinogradovning tub sonlar bilan trigonometrik yig‘indilarni baholash metodi va kritik chiziqning kichik to‘rtburchaklaridagi Dirixle funksiyasining nollarining zichligi haqidagi yangi teoremalarga asoslanib, yangi usul yordamida $S(\alpha;x,y)$ ko‘rinishdagi yig‘indi uchun $\mathfrak{m}((\ln N)^b)$ kichik yoylarda notrivial baho va $y \geq x^\theta$, $\theta = \frac{2}{3} + \varepsilon$ bo‘lganda $\mathfrak{M}((\ln N)^b)$ katta yoylarda qoldiq had uchun formula isbotladi.

1991 yilda T.Jan, Pan Chen-dong va Pan Chen-biao metodi va Dirixle *L* funksiyasining to‘rtinchi momentiga M. Yutilla bahosi yordamida θ ko‘rsatkichni $\frac{5}{8} + \varepsilon$ bilan almashtirdi. Bu masalada eng yaxshi natija J. Chaoxuaga tegishli. U (5) Diofant tenglamasi $\theta = \frac{7}{12} + \varepsilon$ uchun yechish mumkinligini isbotladi.

Agar $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3 -$ bir vaqtda bir xil ishorali bo‘lmagan noldan farqli, λ_i / λ_j munosabatdan hech bo‘lmaganda biri irratsional bo‘lgan haqiqiy sonlar bo‘lsa u holda istalgan n natural sonlari uchun

$$|\lambda_1 p_1 + \lambda_2 p_2 + \lambda_3 p_3| \leq (\ln p)^{-n}, \quad p = \max(p_1, p_2, p_3)$$

tengsizlikni qanoatlantiruvchi cheksiz ko‘p p_1, p_2, p_3 tub sonlari mavjud ekanligini A. Baker isbotladi. Bu natijani isbotlash jarayonida doiraviy metoddan va $S_1(b_i\alpha, N) = \sum_{p \leq N} e(b_i \alpha p)$ ko‘rinishdagi trigonometrik yig‘indilarning katta va kichik yoylardagi mazmun mohiyatidan foydalanib, ma’lum shartlarda $b_1 p_1 + b_2 p_2 + b_3 p_3 = N,$ tenglamaning p_1, p_2, p_3 tub sonlarda yechimga ega bo‘lishligini tekshirdi bu yerda b_1, b_2, b_3 va $N -$ butun sonlar.

Bu bobning asosiy natijasi ushbu teorema orqali ifodalangan.

3-teorema. Aytaylik b_1, b_2, b_3 va $N -$ juft jufti bilan o‘zaro tub bo‘lgan natural sonlar, $N > N_0$, $B_1, B_2, B_3 -$ ixtiyoriy fiksirlangan musbat sonlar, $b_i \leq (\ln N)^{B_i}$, $I(N,H)$-esa $b_1 p_1 + b_2 p_2 + b_3 p_3 = N$, $\left| b_i p_i - \frac{N}{3} \right| \leq H$ Diofant

tenglamaning p_1, p_2 va p_3 tub sonlardagi yechimlari soni bo‘lsin. U holda $H \ge (b_1 b_2 b_3)^{\frac{4}{3}} N^{\frac{2}{3}} (\ln N)^{60}$ bo‘lganda

$$I(N,H) = \frac{3\mathfrak{S}(b_1,b_2,b_3,N)\, H^2}{b_1 b_2 b_3\, (\ln N)^3} + O\left(\frac{H^2 \ln\ln N}{b_1 b_2 b_3 (\ln N)^4} \right),$$

asimptotik formula o‘rinli, bu yerda

$$\mathfrak{S}(b_1,b_2,b_3,N) = \prod_p \left(1 + \frac{1}{(p-1)^3} \right) \prod_{p \mid b_1 b_2 b_3 N} \left(1 - \frac{1}{p^2 - 3p + 3} \right).$$

I. M. Vinogradov tomonidan trigonometrik yig‘indilar ko‘rinishidagi Xardi-Littlvud Ramanudjanning doiraviy metodi yordamida 3-teoremani isbotlash 4-va 5- teoremalarda isbotlangan quyidagi uchta masalaga keltiriladi:

1. $\mathfrak{M}((\ln N)^{c_1})$ katta yoylar markazining kichik oraliqlarida $S_1(b\alpha; x, y) = \sum_{x-y<n\le x} \Lambda(n) e(b\alpha n)$, ko‘rinishdagi tub sonlar bilan maxsus qisqa chiziqli trigonometrik yig‘indilarning mohiyatini o‘rganish:

2. $\mathfrak{M}((\ln N)^{c_1})$ katta yoy markazlarining kichik oraliqlaridan farqli, katta yoylarda ushbu qisqa trigonometrik yig‘indilarning trivial bo‘lmagan baholarini topish:

3. $\mathfrak{m}((\ln N)^{c_1})$ kichik yoylarda $S_1(b\alpha; x, y)$ yig‘indilarning trivial bo‘lmagan baholarini olish.

4-teorema. Aytaylik $x \ge x_0$, A, B, c_1 va c_2-absolyut o‘zgarmas sonlar, $c_2 \le c_1$, $b \le (\ln N)^B$ natural son,

$$\alpha = \frac{a}{q} + \lambda, \quad (a,q) = 1, \quad |\lambda| \le \frac{1}{q\tau}, \quad 1 \le q \le h, \quad h = (\ln x)^{c_1}, \quad \tau = \frac{y^2}{x(\ln x)^{c_2}}.$$

U holda $y \ge x^{\frac{5}{8}} bh (\ln x)^{2,25A+81}$ bo‘lganda

$$S_1(b\alpha; x, y) = \frac{\mu\left(\frac{q}{(b,q)} \right)}{\varphi\left(\frac{q}{(b,q)} \right)} \frac{\sin \pi b\lambda y}{\pi b\lambda} e\left(b\lambda \left(x - \frac{y}{2} \right) \right) + O\left(y (\ln x)^{-A} \right)$$

tenglik o‘rinli.

5-teorema. Aytaylik $x \ge x_0$, A- absolyut o‘zgarmas, $y \ge b x^{\frac{2}{3}} (\ln x)^{\frac{8}{3}A+52}$, b- natural son hamda $\alpha = \frac{a}{q} + \frac{\theta}{q^2}$, $(a,q) = 1$, $b(\ln x)^{4A+82} < q \le \frac{y^2}{x} (\ln x)^{-4A-82}$, $|\theta| \le 1$ bajarilsin. U holda $S_1(b\alpha; x, y) \ll \frac{y}{(\ln x)^A}$ baho o‘rinli.

Bu bobning ikkinchi paragrafida zaruriy lemmalar keltirilgan. Uchinchi paragraf 4-teoremani isbotlashga bag‘ishlangan va katta yoylarda tub sonli maxsus

chiziqli qisqa trigonometrik yig‘indilarning mazmuni to‘g‘risidagi masala o‘rganilgan.

To‘rtinchi paragrafda kichik yoylarda $S_1(b\alpha; x, y)$ ko‘rinishdagi tub sonlar bilan maxsus qisqa chiziqli trigonometrik yig‘indilarni baholashda yuzaga keladigan yig‘ish tartibi bo‘yicha kichik maxsus qisqa chiziqli trigonometrik yig‘indilarni baholaymiz va 5-teoremani isbotlaymiz.

Bu bobning beshinchi paragrafi 3-teoremaning isbotiga bag‘ishlangan. Olingan natija I. M. Vinogradov, K. V. Xazelgrov Pan Chen-dong va Pan Chen-biao, T. Jan natijalarini umumlashtiradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida olingan barcha natijalar shu sohada olingan yangi natijalar hisoblanadi va ular quyidagilardan iborat:

1. kongruent yechuvchanlik va musbat yechishlik shartlarini qanoatlantiradigan berilgan natural sonlar juftini bir vaqtning o‘zida to‘rtta tub son yig’indisi ko‘rinishda tasvirlashlar soni uchun quyidan baho olingan;
2. berilgan sonni bir vaqtning o‘zida to‘rtta tub son yig‘indisi ko‘rinishda tasvirlash mumkin bo‘lmaydigan sonlar soni uchun baho olingan;
3. to‘rtta tub noma’lumli chiziqli tenglamalar sistemasi yechimlari soni uchun baho olingan;
4. katta yoylar markazining kichik bo‘laklarida qisqa chiziqli trigonometrik yig‘indilarning notrivial baholari olingan;
5. umumlashgan Goldbax ternar muammosining yechimlari soni uchun asimptotik formula olingan:

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБРАЕВ БАХРОМ ХОЛТУРАЕВИЧ

О РАЗРЕШИМОСТИ СИСТЕМЫ ЛИНЕЙНЫХ ДИОФАНТОВЫХ УРАВНЕНИЙ В ПРОСТЫХ ЧИСЛАХ

01.01.06 – Алгебра

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

ТЕРМЕЗ – 2024

Тема диссертации доктора философии (DoctorofPhilosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за № B2022.3.PhD/FM753.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http.//www/ik-fizmat/nuu/uz.) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (http://www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Аллаков Исмаил** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Чубариков Владимир Николаевич** доктор физико-математических наук, профессор
	Худойбердиев Аброр Ҳакимович доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 16 » апреля 2024 года в 16:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.01.01 при Институте Математики имени В.И.Ромоновского (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4б. Тел.: (+99871)207-91-40,e-mail: bmath@umail.uz Website www.mathins.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Института Математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 179). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4б.Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан « 03 » апреля 2024 года.
(протокол рассылки № 2 от « 03 » апреля 2024 года).

У.А.Розиков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

Ж.К.Адашев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

А.Р.Хаётов
Заместитель председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м. н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире многие научные и практические исследования, часто приводятся к исследованию задач теоретической механики и криптографии. Исследования математических моделей естественных процессов составляют теоретическую основу аддитивных задач теории чисел, важно определить законы шифрования и дешифрования криптографии с помощью аддитивных задач теории чисел. Кроме того, с помощью числовых функций реализуется и алгоритм шифрования с открытым ключом в криптографии, основанный на том, что не существует рационального способа разделить достаточно большое нечетное число на простые множители. Также законы шифрования и дешифрования реализуются путем деления достаточно больших натуральных чисел на экспоненциальные и субэкспоненциальные сложности, деления чисел на простые множители.

Расшифровка, числовые функции и характеры Дирихле, необходимые для решения таких задач, зависят от значений числовых функций и числовых значений переменных. Аддитивные задачи играют важную роль в теории чисел. В настоящее время решение бинарной проблемы Гольдбаха и его различные результаты в этом направлении были получены впервые с использованием кругового метода Харди-Литтлвуда. Затем дополнение кругового метода методом тригонометрических сумм привело к решению многих разных задач теории чисел. В связи с этим рассматриваются различные формы аддитивных задач с простыми числами, в частности, проблема об условиях существования решения в простых числах системы линейных диофантовых уравнений и проблема обобщения тернарной задачи Гольдбаха на почти равные слагаемые считаются важными научными исследованиями в аддитивной теории чисел.

В нашей стране уделяется большое внимание современным направлениям теории чисел, имеющим научное и практическое применение в фундаментальных науках. В частности, в последние годы были достигнуты значительные результаты в решении задач о представлении чисел суммой простых чисел, включающие в себя тернарные и бинарные проблемы Гольдбаха. Основными задачами и направлениями деятельности математики являются проведение исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям “Алгебра и геометрия”. В целях использования научных результатов в смежных областях науки важными считаются развитие аддитивных задач теории чисел[1].

Исследования данной диссертации в определенной степени служат решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 года “О стратегии действия по

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан, от 09.07.2019 г. № ПП-4387 «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а такжекоренного совершенствования деятельности института Математики имени В.И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан»

